

## **XALQARO JURNALISTNING TIL BILISH DARAJASINI QANCHALIK MUHIM.**

*Muqaddasxon Anvarova Xomidjon qizi*

*O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar universiteti*

**Kalit so'zlar:** jurnalist, til, dolzarb, xalqaro, davlat

**Annotatsiya** Ushbu maqola xalqaro jurnalistlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun til bilish darajasining ahamiyatini tahlil qiladi. Til ko'nikmalari jurnalistlarga ma'lumotlarni to'g'ri tushunish, ulashish va madaniyatlararo aloqa o'rnatishda qanday ahamiyatga ega ekanligi muhokama qilinadi. Shuningdek, xalqaro jurnalistikaning rivojlanishida ko'p tillilikning o'rni va samaradorligi ko'rib chiqiladi.

**Kirish** Bugungi globallashuv davrida jurnalistikaning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Jurnalistlar nafaqat milliy miqyosda, balki xalqaro darajada ham axborot tarqatish, haqiqatni olib berish va jamoatchilikni ma'lumot bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydilar. Xalqaro jurnalistlar turli tillarda va madaniyatlarda faoliyat yuritadi, bu esa ulardan yuqori til ko'nikmalarini talab qiladi. Ushbu maqolada xalqaro jurnalist uchun til bilish darajasining ahamiyati, uning kasbiy faoliyatiga ta'siri va muvaffaqiyatli aloqa o'rnatishdagi roli tahlil qilinadi.

### **Til Bilishning Jurnalistikadagi O'rni**

#### **1. Axborot manbalarini yig'ish**

Xalqaro jurnalistlar turli madaniyat va tillardagi odamlar bilan muloqot qilishlari kerak. Bu jarayonda turli tilni bilish ular uchun katta afzallik bo'ladi. Masalan, mahalliy aholidan to'g'ridan-to'g'ri axborot olish, hodisalarini joyida kuzatish va eng muhimi, voqealarni xolisona yoritish imkoniyatini beradi. Til bilish orqali jurnalistlar faqat rasmiy manbalardan emas, balki turli xil norasmiy va mahalliy manbalardan ham

ma'lumot olish imkoniga ega bo'ladi. Bu xabarlarning haqqoniyligini ta'minlashga yordam beradi.

## **2. Xolislik va Tushunish**

Jurnalistika asosi haqqoniylilik va xolislikdan iborat. Axborotni xolisona etkazish uchun jurnalist voqeа joyidagi odamlar bilan bevosita suhbatlashib, ularning fikrlarini to'g'ri tushunishi kerak. Tilni yaxshi bilmaslik xabarni noto'g'ri talqin qilish yoki noto'g'ri tarjima qilish ehtimolini oshiradi, bu esa noto'g'ri tushunchalarga olib kelishi mumkin. Shu sababli xalqaro jurnalist uchun til bilish, axborotni to'g'ri tushunib, to'g'ri etkazish uchun juda muhim.

## **3. Madaniyatlararo Aloqa**

Til faqat aloqa vositasi emas, balki madaniyatning ajralmas qismidir. Xalqaro jurnalistlar boshqa mamlakatlarda faoliyat olib borganida, ular faqat ma'lumot yig'ish emas, balki madaniy kontekstni ham to'g'ri tushunishi kerak. Masalan, bir xalqning tili va u orqali ifodalangan madaniyatini yaxshi bilish jurnalistga ularning urf-odatlari, qadriyatlari va muhim masalalarga bo'lgan munosabatlarini tushunishda yordam beradi. Bu esa nafaqat axborotni to'g'ri etkazishga, balki jurnalistning o'ziga ishonch qozonishga ham xizmat qiladi.

## **4. Maqsadli Auditoriyaga Moslashish**

Ko'p tillilik xalqaro jurnalistlar uchun o'z auditoriyasiga yanada yaqinlashish imkonini beradi. Jurnalist o'z axborotini turli tillarda etkazib bera olsa, u yanada kengroq auditoriyaga ega bo'lishi mumkin. Axborotni o'quvchi tilida yetkazish orqali jurnalist auditoriyasining ishonchini qozonadi va ular bilan kuchli aloqa o'rnatadi. Masalan, xalqaro jurnalistlarning mahalliy tillarda chiqish qilishi yoki o'z xabarlarini mahalliy xalq tilida tarqatishi, mahalliy aholi tomonidan yanada iliq qabul qilinishiga olib keladi.

### **Til bilish darajasida jurnalistning Muvaffaqiyati.**

Xalqaro jurnalist uchun til bilimining yuqori darjasini uning kasbiy muvaffaqiyatida muhim o'rinn tutadi. Ko'p tillarni yaxshi bilgan jurnalistlar yangi mavzularni yoritishda, muammolarni to'g'ri talqin qilishda va o'z imkoniyatlarini kengaytirishda ustunlikka ega

bo'ladi. Qiyin sharoitlarda yoki notinch hududlarda ishlayotgan jurnalistlar tilni yaxshi bilish orqali o'z xavfsizligini ta'minlash, to'g'ri aloqa o'rnatish va madaniy nozik jihatlarni inobatga olishda ustunlikka ega bo'ladilar. Bu ularning nafaqat kasbiy, balki shaxsiy xavfsizligi uchun ham muhimdir. Misol tariqasida “Bi-bi-si muxbiri Karolin Uaytt til o'rganish uning karerasi uchun qanchalik muhim bo'lganligi” haqidagi intervuya yuzlansak.

### **1.Umuman olganda, jurnalistika kabi kasbda tillar qanchalik muhim rol o'yinaydi?**

Karolin Uaytt: Xorijiy muxbirlar uchun tillar katta ahamiyatga ega. Men bilgan xorijlik muxbirlarning ko'pchiligi bu tilda ravon yoki juda yaxshi gapiradi, agar bilmasangiz, siz haqiqiy ahvolga tushib qolasiz. Muharrirlar har doim jamoaning kamida bitta a'zosi tilda gaplashishini ta'minlashga harakat qiladi, lekin juda kam odam oxirgi daqiqada qayerga yuborilmasin, ravon gapiresh uchun etarli tillarda gaplasha oladi. Men Yevropaning ko'p mamlakatlarida, shuningdek, Hindiston va Pokistondan tortib Isroil, Misr, Iraq va Afg'oniston va sobiq Sovet Ittifoqidagi hamma joyda hikoyalar ustida ishlaganman. Agar men odamlar bilan to'g'ridan-to'g'ri gaplasha olsam va ular aytgan har bir so'zni tushuna olsam, men juda yaxshi ish qilgan bo'lardim, deb tez-tez his qilardim, shuningdek, ular aytgan narsaning nuanslarini. Bunday sharoitda yaxshi tarjimonga ega bo'lish mutlaq zarur, shuningdek, ketishdan oldin imkon qadar ko'proq mamlakat va uning madaniyati haqida o'qish kerak.

### **2. Tilni bilmagan joylarda xabar berish qanday o'xshaydi – bu qandaydir qiyinchiliklar tug'diradimi?**

Karolin Uaytt: Til bilmaydigan joylar haqida xabar berish ancha qiyin. Esimda, Chechenistondan xabar berib, u yerdagi go'yoki qirg'in va boshqa qotilliklar haqida savollar berganim. Farzandlarini yo'qotgan onalar bilan hech qanday haqiqiy nuance bilan savol bera olmasdan gaplashish juda qiyin edi. Xuddi shunday, namoyishlar paytida Qohiradan reportaj berayotganda, odamlar bilan to'g'ridan-to'g'ri gaplasha olmaslik yoki nima baqirayotganini tushunolmaslik uchun men o'zimni ancha zaif his

qildim. Xuddi shunday Shimoliy Iroqda IShID tomonidan uylaridan haydalgan yazidiy erkaklar va ayollar haqida xabar berar ekanman, intervular davomida o'zimni juda ko'p yo'qotayotganimni his qildim, chunki keyingi savollarim talqin qilinishi bilan cheklangan edi. Kimdir zo'rlangani yoki o'z oilasining so'yilganini ko'rgani haqida erkak tarjimon orqali gapisishi juda qiyin, chunki u suhbatdoshta bunday savollarni berishdan o'zini noqulay his qilishi mumkin. Ikki xil savolga berilgan javob mavzuga yaxshigina misol bo'la oladi. Ushbu soha egalari har qanday holatga duch keladi. Nafaqat jurnalist, balki oddiy inson ham kengroq muloqotga kirishishida tillarga ehtiyoj sezadi. Ko'p tillarni bilish shuningdek, jurnalistga intervularni bevosita asl tilida olish imkoniyatini beradi va tarjima jarayonida yuzaga keladigan xatolarni kamaytiradi.

**Xulosa** Xalqaro jurnalist uchun til bilish darajasi nafaqat kasbiy mahoratni oshiradi, balki davlatlaro muloqotda muvaffaqiyatli ishtirok etish va xabarlarning haqqoniyligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Jurnalist uchun ko'p tillarni bilishi uni faqat boshqa tillarda axborot tarqatish vositasi sifatida emas, balki madaniyatlarni o'rganish, muammolarni to'g'ri talqin qilish va xalqaro miqyosda ishonchli aloqa o'rnatishda ham xizmat qiladi. Shu sababli til bilishning yuqori darajasi xalqaro jurnalistning muvaffaqiyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

### **Foydanalingan adabiyotlar**

1. Smith, J. (2022). Global Journalism and Multilingualism: Challenges and Opportunities. *International Journal of Communication*.
2. Bi-bi-si muxbiri Karolin Uaytt til o'rganish uning karerasi uchun qanchalik muhim bo'lganligi haqida <https://www.cambridge.org/elt/blog/2018/03/23/bbc-caroline-wyatt-language-learning/>
3. Johnson, L. (2021). The Role of Language Skills in Cross-Cultural Reporting. *Journalism Studies Review*.
4. Brown, T. (2020). Cultural Competence in International Journalism. *Media & Society*.